



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **15,1 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **o'zgarishsiz qolgan**.
- Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **15,4 mingtaga oshgan**.

2018 yilning yanvar-aprel oyida Respublikada 20,7 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % ga kamaygan hamda ularning soni 5,3 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 15,1 mingta (5,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 300,6 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,2 %), Toshkent viloyatida (9,5%), Farg'ona (8,9 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
O'z. Respublikasi	315,9	100,0	300,6	100,0
Q. Respublikasi	15,2	4,8	14,6	4,9
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	27,4	8,7	25,9	8,6
Buxoro	17,4	5,5	16,5	5,5
Jizzax	13,8	4,4	13,1	4,4
Navoiy	20,1	6,3	19,5	6,5
Namangan	10,4	3,3	10,0	3,3
Qashqadaryo	21,7	6,9	20,6	6,9
Samarqand	23,7	7,5	22,3	7,4
Surxondaryo	15,6	4,9	14,8	4,9
Sirdaryo	10,5	3,3	9,8	3,3
Toshkent	32,5	10,3	28,7	9,5
Farg'ona	27,4	8,7	26,9	8,9
Xorazm	14,7	4,7	14,1	4,7
Toshkent sh.	65,5	20,7	63,8	21,2


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,7 % savdoda, 17,0 % sanoatda, 8,9 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-aprel holatiga 20692 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (4361 ta), Toshkent (1965 ta), Farg'ona (1688 ta) va Andijon viloyatlarida (1652 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (538 ta), Xorazm (713 ta) hamda Navoiy (819 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (4228 ta), sanoatda (3985 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (2353 ta), qurilishda (2268 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (1274) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (467 ta), axborot va aloqada (482 ta) hamda tashish va saqlashda (744 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
Jami:	17996	20692
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2672	2353
Sanoat	4714	3985
Qurilish	1575	2268
Savdo	3672	4228
Tashish va saqlash	788	744
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1536	1274
Axborot va aloqa	432	482
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	294	467
Boshqa turlari	2313	4891

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p) va savdoda (-0,7 f.p), kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,8 f.p.), qurulishda (+0,4 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,2 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,1 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+/-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	3,0	-0,9
Savdo	22,0	22,7	-0,7
Tashish va saqlash	4,1	4,1	0,0
Axborot va aloqa	2,2	2,2	0,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,0	5,9	0,1
Boshqa turlari	30,3	30,2	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,4	7,2	0,2
Qurilish	8,7	8,3	0,4
Sanoat	17,2	16,4	0,8

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 may holatiga 244,7 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 71,2 mingta, oilaviy korxonalar – 13,0 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 153,2 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,6 mingtani va boshqalar 6,7 mingtani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5978 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 823 taga yoki 16,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3314 tasi qo'shma korxonalar, 2664 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahar 3883 ta (65,0 %), Toshkent viloyati 644 ta (10,8 %) va Samarqand viloyatlari 317 ta (5,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 52 ta (0,9 %), Qashqadaryo viloyati 57 ta (1,0 %), Navoiy viloyati 66 ta (1,1 %) va Surxondaryo viloyati 79 ta (1,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2542 ta (42,5 %), savdoda 1239 ta (20,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1036 ta (17,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 81 ta (1,4 %), axborot va aloqada 150 ta (2,5 %), tashish va saqlashda 177 ta (3,0 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 198 ta (3,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 233 ta (3,9 %) va qurilishda 322 ta (5,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 583 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 360 taga ko'paygan yoki 2,6 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 119 ta, Turkiya Respublikasi – 85 ta, Qozog'iston Respublikasi – 77 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-75 ta va Koreya Respublikasi– 54 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-aprel holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 191 ta, savdoda 159 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 53 ta, qurilishda 51 ta va boshqa faoliyat turlarida 129 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 242,5 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 7,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 54,7 mingtasi (22,6 %) Toshkent shahriga, 23,2 mingtasi (9,6 %) Toshkent, 21,4 mingtasi (8,8 %) Farq'ona hamda 21,2 mingtasi (8,7 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 242,5 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 65,8 mingtasi (27,1 %) – savdoda, 51,0 mingtasi (21,0 %) - sanoatda, 25,9 mingtasi (10,7 %) - qurilishda, 21,8 mingtasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 17,9 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,3 mingtasi (5,1 %) - tashish va saqlashda, 6,3 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 4,7 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 36,8 mingtasi (15,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 18,0 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (413 ta), Toshkent (1814 ta), Samarqand (1532 ta) va Farg'ona viloyatlarida (1422 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (494 ta), Xorazm (612 ta) hamda Navoiy (614 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (4221 ta), sanoatda (3979 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (2346 ta) va qurilishda (2265 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (460 ta), axborot va aloqada (481 ta) hamda tashish va saqlashda (741 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 13603 tani tashkil etib, ulardan 13010 tasi yoki 95,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **26,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,1 % yoki 4832 tasi sanoat, 21,1 % yoki 2739 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,6 % yoki 2168 tasi savdo, 11,3 % yoki 1469 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 172 tasi qurilish, 1,2 % yoki 152 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 142 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 117 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,4 % yoki 1219 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Davlat statistika qo'mitasi
Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: **S.Begmatov**
(0371) 230-80-91,90



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan